6–7 YOSHLI BOLALAR BILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SHAXS TARBIYASIGA YO‘NALTIRILGAN RAQAMLI KONTENTNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Qodirova Nargiza Raxmatillo qizi
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23510574

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktab ta’limiga tayyorlash jarayonida 6–7 yoshli bolalarda bilish kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari, xususan shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan raqamli kontentning o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Bilish kompetensiyasi idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur hamda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini birlashtiruvchi integrativ sifat sifatida talqin etiladi. Maktabgacha ta’limdan boshlang‘ich ta’limga o‘tish davrining psixologik-pedagogik xususiyatlari tahlil qilinib, kompetensiyaviy, faoliyatli va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida didaktik o‘yinlar, elementar kuzatish va tajriba, loyiha faoliyati, STEAM yondashuvi hamda raqamli ta’lim vositalarining rivojlantiruvchi salohiyati yoritilgan.*
Kalit so‘zlar: *maktab ta’limiga tayyorlash, bilish kompetensiyasi, 6–7 yoshli bolalar, didaktik imkoniyatlar, didaktik o‘yin, kompetensiyaviy yondashuv, bilish faoliyati, STEAM, refleksiya.*


Аннотация. *В статье научно-теоретически обоснованы дидактические возможности развития познавательной компетентности у детей 6–7 лет в процессе подготовки к школьному обучению, в частности, роль цифрового контента, ориентированного на воспитание личности. Когнитивная компетентность трактуется как интегративное качество, объединяющее восприятие, внимание, память, мышление, речь, воображение и навыки самостоятельного обучения. Проанализированы психолого-педагогические особенности переходного периода от дошкольного к начальному образованию, освещены развивающий потенциал дидактических игр, элементарных наблюдений и экспериментов, проектной деятельности, подхода STEAM и цифровых образовательных инструментов на основе компетентностного, деятельностного и личностно-ориентированного подходов.*
Ключевые слова: *подготовка к школе, познавательная компетенция, дети 6–7 лет, дидактические возможности, дидактическая игра, компетентностный подход, познавательная деятельность, STEAM, рефлексия.*

Abstract. *This article scientifically and theoretically substantiates the didactic possibilities of developing cognitive competence in 6–7-year-old children in the process of preparing for school education, in particular, the role of digital content focused on personal development. Cognitive competence is interpreted as an integrative quality that combines perception, attention, memory, thinking, speech, imagination, and independent learning skills. The psychological and pedagogical features of the transition period from preschool to primary education are analyzed, and didactic games, elementary observation and experience, project activities, the STEAM approach and the developing potential of digital educational tools are highlighted on the basis of competency, activity and personality-oriented approaches.*
Keywords: *school readiness, cognitive competence, children aged 6–7, didactic potential, didactic game, competence-based approach, cognitive activity, STEAM, reflection.*

Bolaning maktabga o‘tish davri uning butun ta’lim yo‘li uchun poydevor hisoblanadi. Shu bois 6–7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash tizimida

ularning bilish faoliyatini va unga asoslangan bilish kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri sanaladi. Bugungi bolalar ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar bilan erta yoshdan tanishadi. Shu sababli raqamli kontent bolaning bilish faolligini oshiruvchi vosita bo‘lishi bilan birga, uning shaxs sifatida shakllanishiga, qadriyatlarni o‘zlashtirishiga va xulq-atvor madaniyatiga ham ta’sir etadi. Bu esa raqamli kontentni faqat ko‘ngilochar yoki o‘rgatuvchi vosita sifatida emas, balki shaxs tarbiyasiga yo‘naltirilgan didaktik resurs sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi me’yoriy hujjatlar, jumladan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturi bolaning har tomonlama rivojlanishini, uning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi va mustaqilligini ta’minlashni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi. Bilish kompetensiyasi bolaning atrofdagi olamni anglash, axborotni qabul qilish va qayta ishlash, savol berish, muammoni aniqlash hamda uni hal etish usullarini egallashga tayyorligini ifodalaydi. Bu kompetensiya bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarning uyg‘unligiga tayanadi. Amaliyotda esa ko‘pincha maktabga tayyorgarlik faqat o‘qish, yozish va sanash malakalarini oldindan o‘rgatish bilan cheklanadi. Bu bolaning bilish faolligini rivojlantirishga yetarli darajada xizmat qilmaydi. Mazkur ziddiyat bilish kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini tizimli o‘rganish zarurligini belgilaydi.

6-7 yoshda bolaning yetakchi faoliyati o‘yindan o‘quv faoliyatiga o‘ta boshlaydi. Bu davrda ixtiyoriy diqqat va xotira shakllanadi, ko‘rgazmali-obrazli tafakkur bilan bir qatorda mantiqiy tafakkur unsurlari paydo bo‘ladi, bolaning nutqi izchillik kasb etadi, “nima uchun?”, “qanday qilib?” kabi savollar ko‘payadi. Ilmiy manbalar tahlili bilish kompetensiyasini bir necha o‘zaro bog‘liq komponentlar yig‘indisi sifatida qarash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar uchun idrok va diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari, nutq va muloqot, tasavvur va ijodkorlik, mustaqil o‘rganish kabilar bilish kompetensiyasining komponentlaridir. (1-rasm)



1-rasm. 6–7 yoshli bolalarda bilish kompetensiyasining tarkibiy qismlari.

6–7 yoshli bolalarda bilish kompetensiyasini rivojlantirishda quyidagi didaktik vositalar yuqori samaraga ega.

Didaktik o‘yinlar – o‘yin shaklidagi o‘quv topshiriqlari bolaning ichki motivatsiyasini saqlagan holda diqqat, xotira va mantiqiy fikrlashni mashq qildiradi.

Kuzatish va elementar tajribalar – bola predmetlarning xossalarini bevosita sinab ko‘rish orqali taxmin qilish va uni tekshirish ko‘nikmasini egallaydi.

Loyiha faoliyati – qisqa muddatli mini-loyihalar bolada maqsad qo‘yish, hamkorlikda ishlash va natijani taqdim etish tajribasini shakllantiradi.

Hikoya, suhbat va dialog – savol-javob va izohlash orqali nutq va mantiqiy bog‘lanishlarni tushunish rivojlanadi.

STEAM yondashuvi va konstruktorlar – qurish va modellashtirish fazoviy tasavvur, muammo yechish va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Raqamli vositalar – yosh xususiyatlariga mos, vaqti me’yorlangan interaktiv o‘yinlar va animatsiyalar o‘quv mazmunini ko‘rgazmali yetkazadi. Ular bevosita muloqot va amaliy faoliyatni almashtirmasligi, faqat to‘ldirishi kerak.



2-rasm. Bilish kompetensiyasini shakllantirish bosqichlari.

Bilish kompetensiyasini shakllantirishning samaradorligi quyidagi pedagogik shartlarga bog‘liq:

o‘quv mazmunini bolaning shaxsiy tajribasi va qiziqishlari bilan bog‘lash;

pedagog rolini “axborot beruvchi”dan “yo‘naltiruvchi va hamkor”ga o‘zgartirish;

topshiriqlarni soddadan murakkablik darajasi doirasida bosqichma-bosqich tizimlashtirish;

rivojlantiruvchi predmet-fazoviy muhitni (tajriba burchagi, konstruktorlar, didaktik materiallar) yaratish;

oila bilan hamkorlikda bolaning bilish faolligini qo‘llab-quvvatlash.

Bilish kompetensiyasining shakllanganlik darajasini baholash uchun idrok, tushunish, tahlil, xulosa hamda ijodiy darajalardan iborat ierarxik tuzilma tayyorlash tavsiya etiladi. Har bir daraja murakkabligi ortib borishi bilan ajralib turadi, ularga mos ko‘rsatkichlar va diagnostik topshiriqlar keltiriladi. Baholash bolani boshqalar bilan taqqoslashga emas, uning shaxsiy o‘sish dinamikasini kuzatishga asoslanishi,

kuzatuv, portfolio va o‘yin shaklidagi diagnostik topshiriqlar uyg‘unligida olib borilishi lozim. Bu bolada muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish hissini yuzaga keltirmaydi, aksincha o‘rganishga ijobiy munosabatni saqlab qoladi.

6–7 yoshli bolalarda bilish kompetensiyasini rivojlantirish maktab ta’limiga tayyorlashning markaziy yo‘nalishi ekanini ko‘rsatdi. Bu kompetensiya idrok, xotira, tafakkur, nutq, tasavvur va mustaqil o‘rganish komponentlarining birligidan iborat bo‘lib, uni shakllantirishda didaktik o‘yinlar, kuzatish va tajriba, loyiha faoliyati, hikoya va suhbat, STEAM yondashuvi hamda raqamli vositalar muhim didaktik imkoniyatlarni yaratadi. Taklif etilgan besh bosqichli jarayon (motivatsiya – muammoli vaziyat – izlanish – amaliy faoliyat – refleksiya) va daraja mezonlari pedagogga bolaning bilish kompetensiyasi rivojlanishini rejalashtirish va baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595.
2. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturining/uchunchi nashr/ Toshkent – 2026.
3. Hasanboyeva O.U. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent — «ILM ZIYO» — 2011, 83-bet.
4. Nishanova Z.T, Alimova G.K, Turg‘unboyeva A.G‘, Asranboeva M.X. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. Darslik, Toshkent – 2017. 21-bet.
5. Xayitboyeva N., Rahimova U. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasining xususiyatlari va talablari. XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta’lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar. http://universalpublishings.com. 62-bet. 2023-yil.
6. Livingstone S., Stoilova M., Nandagiri R. *Children’s data and privacy online: Growing up in a digital age*. London: LSE, 2019.